JADIDCHILIK MATBUOTI SHAKLLANISHI TARIXIDAN

Saidqulova Irodaxon Obidjon qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti
saidqulovairoda@gmail.com
Ilmiy rahbar: t.f.d., dots. B.Xaynazarov

Annotatsıya. *XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan bu matbuot an’anaviy dunyoqarashdan farqli o‘laroq, ma’rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik va milliy uyg‘onish g‘oyalarini ilgari surdi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi jadid namoyandalari tomonidan nashr etilgan gazetalar va jurnallar xalqni savodxonlikka chorlab, ijtimoiy islohotlar zarurligini asosladilar.Jadid matbuoti milliy o‘zlikni anglash, ilg‘or dunyo tajribasini o‘rganish, diniy islohotlar va zamonaviy ta’lim tizimini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratdi. Matbuot sahifalarida tahliliy maqolalar, publitsistik chiqishlar, badiiy-tanqidiy asarlar hamda xalqni o‘z haq-huquqlarini anglashga undovchi materiallar chop etilgan. Shu tariqa, jadidchilik matbuoti Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida yangilanishning muhim turtkisi bo‘lib, milliy matbuot taraqqiyotiga asos soldi.*

Kalit so‘zlar: *«Туркестáнские вéдомости», «Туркистон вилоятининг газети»-Taraqqiy", «Xurshid», «Shuxrat», «начальство », «Xayrul-umri avsatuxo‘, «Mazhabi ishtirokiyun», «Dorur-rohat musulmonlar», Munavvarqori Abdurashidxonov, Bexbudiy, «Tujjor».*

Аннотация. *В конце XIX – начале XX века сформировавшаяся эта пресса, в отличие от традиционного мировоззрения, продвигала идеи просвещения, прогресса и национального возрождения. Газеты и журналы, издаваемые такими представителями джадидизма, как Махмудходжа Бехбуди, Абдурауф Фитрат, Мунавваркари Абдурашидханов, призывали народ к грамотности и обосновывали необходимость социальных реформ. Пресса джадидов уделяла особое внимание осознанию национальной идентичности, изучению передового мирового опыта, религиозным реформам и формированию современной системы образования. На страницах изданий публиковались аналитические статьи, публицистические материалы, художественно-критические произведения, а также материалы, побуждающие народ к осознанию своих прав. Таким образом, пресса джадидов стала важным стимулом для обновления социально-культурной*

жизни Туркестана и заложила основу для развития национальной журналистики.

Ключевые слова: *«Туркестанские ведомости», «Туркистон вилоятининг газети», «Тараққий», «Хуршид», «Шухрат», начальство, «Хайрул-умри авсатухо», «Мазхаби иштирокиюн», «Дорур-рохат мусульмонлар», Мунавваркори Абдурашидханов, Бехбуди, «Тужжор».*

Annotatıon. *At the end of the 19th and the beginning of the 20th century, this press emerged as a promoter of enlightenment, progress, and national revival, in contrast to traditional worldviews. Newspapers and magazines published by representatives of the Jadid movement, such as Mahmudkhoja Behbudi, Abdurauf Fitrat, and Munavvarqori Abdurashidkhanov, called on the people to become literate and justified the necessity of social reforms. The Jadid press paid special attention to raising national identity awareness, studying advanced global experiences, implementing religious reforms, and shaping a modern education system. The publications featured analytical articles, journalistic pieces, literary and critical works, and materials encouraging people to understand their rights. Thus, the Jadid press became an important catalyst for the renewal of the socio-cultural life of Turkestan and laid the foundation for the development of national journalism.*

Keywords: *Turkestanskie Vedomosti, Turkiston Viloyatining Gazeti, Taraqqiy, Xurshid, Shuxrat, authorities, Xayrul-umri avsatuxo‘, Mazhabi ishtirokiyun, Dorur-rohat musulmonlar, Munavvarqori Abdurashidxonov, Behbudiy, Tujjor.*

Jadidchilik harakati XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda paydo bo‘lgan. Bu harakating asoslari XIX asrning ikkinchi yarmida shakllana boshlagan bo‘lsa-da, uning aniq harakat sifatida maydonga chiqishi XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Ayniqsa, 1905- 1907-yillardagi rus inqilobi va undan keyingi ijtimoiy –siyosiy o‘zgarishlar jadidchilik harakatining rivojlanishiga turtki bo‘lgan. Jadidlar xalqni ma’rifatga chorlash, zamonaviy ta’lim tizimini yaratish va milliy ongni uyg‘otish uchun kurash olib borganlar.

Bilamiz-ki, jadidlar yangi zamonaviy g‘oyalarni tarqatishda matbuotdan juda o‘rinli foydalanganlar. Garchi Turkistonda gazetalar- “Туркеста́нские ве́домости" va uning ilovasi hisoblangan «Туркистон вилоятининг газети»- o‘lka chor Rossiyasi tomonidan istilo etilganidan so‘ng bosqinchilar hukmronligini mustahkamlash maqsadida 1870-yil chiqarila boshlagan bo‘lsa-da, mahalliy aholining manfaatlarini himoya etuvchi jadid milliy matbuoti XX asrning boshlarida, aniqrog‘i 1906-yilga kelib chop etila boshladi. Bunga XX asrning boshlarida Rossiya imperiyasi hududida yuzaga kelgan tarixiy, ijtimoiy - siyosiy

vaziyat muayyan darajada omil bo‘gandi. 1905-1907-yillari sodir bo‘gan inqilobiy harakatlar mamlakatda hukm surayotgan monarxiya tizimini larzaga keltirdi. Inqilobiy harakatlardan qo‘quvga tushgan imperator Nikolay II 1905-yili 17-oktyabr manifesti deb atalgan hujjatga imzo chekishga majbur bo‘lgan. Manifestga ko‘ra, Rossiya fuqarolariga so‘z va matbuot erkinligi, jamiyatlar (firqalar) tuzish ixtiyori va'da qilindi, inson huquqlari muhofaza qilinishi aytildi. Mana shu vaziyat Turkistonda milliy matbuot yuzaga kelishining siyosiy-huquqiy omilini tashkil qilgandi. qulay vaziyatdanfoydalanish uchun Turkiston jadidlari ham harakatga tushdilar va natijada, 1906-yilning 14 (yangi hisob bilan 27) iyunda “Taraqqiy” nomli o‘zbekcha ilk gazeta chiqarishga muvaffaq bo‘ldilar[1]. Bu gazetada imperiya hukumatining Turkistondagi mustamlakachilik siyosatini fosh etuvchi maqolalar, habarlar va ma’lumotlar chop etilgan. Unda Munavvarqori Abdurashidxonov, Nozimaxonim, Baxrombek Davlatbekov, So‘fizoda kabi ziyolilarning turli mavzudagi maqolalari chop etilgan. Gazetaning 1906-yil 3- sonida pivoxo‘rlik va ichkilikbozlik keng tarqalib ketilayotganligidan xavotirli fikrlar bildirilgan. Uning tahririyati O‘ratepa ko‘chasi 97- uyda joylashgan edi. Gazeta bahosi bir yilligi 5 so‘m edi, 6 oyligi esa 2 so‘m 50 tiyin, 3 oyligi 1 so‘m 50 tiyin bo‘lgan. Bir donasi 50 tiyindan sotilgan. Gazeta to‘rt sahifada chop etilgan bo‘lib unda e’lonlar ham bo‘lgan. E’lonlar gazetaning birinchi sahifasiga satriga 40 tiyin, oxirgi saxifadagi satriga 20 tiyindan olingan. «Taraqqiy» gazetasining shiori “Najot maslakda sabot, to‘g‘rilikda ijobat” edi. Gazeta tanqidiy yo‘nalishda va mustamlakachilik siyosatini fosh etuvchi maqolalar chop etgan. Bu gazeta Toshkenda chop etilgan bo‘lib, uning noshiri va muharriri Ismoil Obidiy edi. U jurnalist, jamoat arbobi edi. G‘uljadagi Rossiya elchixonasi xodimi oilasida tug‘ilgan. Otasining vafotidan keyin 1900-yilda onasi bilan birga Qozonga ko‘chib kelgan va shu yerdagi bilim yurtda o‘qigan. Keyinchalik esa Turkistonga kelib, o‘zbek tatar rus ma’rifatparvarlari yordamida ushbu gazetani ochadi. 1930-yillarda Abdulla Qodiriy bilan yaqinlashib, uning «Obid ketmon» qissasini tarjima qiladi.

Turkistondagi rus ma’murlari mahalliy aholining gazeta chiqarishlaridan nihoyatda qattiq xavfsiraganlar. Shu bois manifest e’lon qilingandan so‘ng ham turli yo‘llar bilan bunga to‘sqinlik qilmoqchi bo‘lganlar. Mahalliy ziyolilarni, aniqrog‘i, jadidlarni laqillatish maqsadida 1906-yil boshida o‘zlarining sodiq xizmatkorlari Ivan Geyer muharirligida o‘zbek tilida «O‘rta Osiyoning umr guzaronligi gazetasi Taraqqiy» nomli gazeta tashkil qilib, go‘yo bu bilan mahalliy aholini manfaatlarini himoya qiluvchi gazeta yuzaga keldi, degan tasavvur uyg‘otmoqchi bo‘ldilar. Shu tariqa mazkur gazetaning 1-soni 1906-yil ikkinchi yanvarida M.I. Ilinning

[1] С. Холбоев, У. Долимов, Б. Дусткораев, Туркистон жадидчидиги -миллий уйгониш даври тарихи (XlX аср охири - XX аср бошлари . Наманган-2012. "Namangan" .85- bet

tipolitografiyasida bosilib chiqgan. Unda asosiy xodimlar muharrirning o‘z va tarjimon Maxmudjon Oydarov bo‘lgan. 1-son chiqishiga “Turkiston viloyatining gazeti”ning xodimi mulla Olim Abulqosimov yordam bergan. Biroz o‘tgach Munavvarqori tahririyatga ishga olingan[2].

Dastlab, aksariyat ziyolilar bu gazetaga xayrihohlik bildiradilar biroq keyinchalik gazetaning kirdikorlari ochiladi. Umuman olganda bu gazeta «Turkiston viloyati gazeti» dan farq qilmasdi. «Turkiston viloyatining gazeti «17 ta soni chiqgach, talab yo‘qligi tufayli yopildi.

“Taraqqiy” gazetasining bor yo‘g‘i 19 soni chiqqan bo‘lsa-da, unda jamiyatni qiynayotgan muammolar ko‘tarilgan edi. Uning 1-, 2- sonlarida Turkiston jadidlarining atoqli namoyondasi Munavvarqorining «Bizning jaholat - jahli murakkab» sarlavhali maqolasida maktab va madrasalarda o‘qitish tizimini tubdan o‘zgartirish fikri bilan chiqishi bu jihatdan ma’lum darajada jasorat namunasi edi. Muallif birinchi marta maktab va madrasalardagi kamchiliklari to‘liq bayon etadi. U maktablarda berilayotgan ta’lim va tarbiyani tahlil qilar ekan, o‘qituvchining shaxsi, qanday fanlar o‘qitilishi, ularni qaysi uslub (metod) asosida o‘qitish kabi zamona qo‘yayotgan muhim masalalarga e’tibor qaratadi. Eng avvalo, u farzandlarini maktab va madrasalarda o‘qitish uchun qo‘lidan kelganicha xarakat qilinadigan otalar borligini maqolasida qayd qilib o‘tadi. Lekin, shu bilan birga, farzandlarini o‘qitmay, ma’sum bolalarni aziz umrlarini «jaholat otashina yondiruvchi bexamiyat va bediyonat otalar» ham oz emasligini taassuf bilan ta'kidlaydi[3].

Darhaqiqat, bu mavzu bugungi kunda ham juda dolzarb. Farzandini ilmli qilish uchun hamma narsaga tayyor ota onalar talaygina. Ular ilm qadrini uning qanchalik buyukligini biladilar va buni farzandlari ongiga singdiradilar. Oilada muhit qanday bo‘lsa u oilada tarbiyalangan farzand ham shunday bo‘ladi. Jamiyatda shunday oilalar, ota-onalar borki ularga farzand tarbiyasini topshirishdan oldin o‘zlarini tarbiyalash kerak. Ularga ta’lim tarbiya nima ekanligini uqtiradigan muallim kerak. Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida “Tarbiya ona vazifasidir keyin ota, keyin maktab va jamoatchilik ishidir” deydi. Mashhur pedagog bu asarida ota-onalar o‘zlari bilimli va tarbiyali bo‘lishlari kerakligini ta’kidlaydi. “Qaysi onalar aytursiz, bilimsiz, boshi paxmoq qo‘li to‘qmoq onalarnimi? O‘zlarida yo‘q tarbiyani qayerdan olib berurlar. Qaysi ota? To‘ychi, uloqchi, bazmchi, do‘mbirachi, karnaychi, surnaychi, ilm qadrini bilmagan, ilm uchun pulini ko‘zi qiymagan, zamondan xabarsiz otalarni aytursizmi? Avval ularning o‘zlarini o‘qitmoq va tarbiya qilmoq lozimdir”.

[2] Холбоев С., Долимов У., Дусткораев Б. Туркистон жадидчидиги – миллий уйғониш даври тарихи (XIX аср охири – XX аср бошлари. – Наманган: Namangan, 2012. 86-bet

[3] Холбоев С., Долимов У., Дусткораев Б. Туркистон жадидчидиги – миллий уйғониш даври тарихи (XIX аср охири – XX аср бошлари. – Наманган: Namangan, 2012. 89-bet.

Shu boisdan kelajakda jaholatni kamaytirish uchun eng avvalo ilmsizlikni kamaytirish kerak. Zero, Islom dinida ham barcha uchun ilm olish farz etib belgilangan.

Munavvarqori maqolasida o‘qituvchilar haqida ham mulohaza yuritadi. Ularning “aksarlari qonuni ta’lim va tarbiyadan butun –butun bexabar kishilar” ekanligini ochiqchasiga yozadi[4]. Bundan tashqari u Hazrati Imomi A’zam davrida qaror topgan o‘qitish tizimini isloh qilish kerakligini yozadi.

Keyinchalik «Taraqqiy» gazetasi yopilgandan so‘ng «Xurshid» gazetasi bosib chiqarila boshlandi. U ham qisqa muddat faoliyat yuritadi. 1906-yil 7-sentyabrdan haftada 1 marta Toshkentda toshbosma usulda bosib chiqariladi. Gazeta milliy ta’lim, madaniyat va mustaqillik g‘oyalarini ilgari surgan ziyolilar minbari bo‘lib, matbuot orqali xalqni o‘z huquqlari va dunyodagi o‘zgarishlar bilan tanishtirishga harakat qilgan.

1906-yil 10- oktabirida gazetaning 6-sonida bosilgan «Xayrul-umri avsatuxo” (Ishlarning yaxshisi o‘rtanchasidir) maqolasi e’tiborlidir. Bu maqola uzoq yillar sovet tarix fani nuqtai nazaridan baholanib, Behbudiyni qoralash uchun nishon bo‘lib kelgan. Gap shundaki, Behbudiy o‘sha 1906-yildayoq sotsialistik ta’limotni va uni Rossiyada amalga oshirishga bel bog‘lagan Lenin partiyasini keskin rad etgan Rossiya musulmonlari ittifoqi («Ittifoqi muslimin «) ni qarashlarida ma’lum yaqinlik bo‘lgan Kalendar “kadetlar” bo‘sa kerak partiyasini qo‘llaydi. Uning bu xususidagi fikrlari ustozi Ismoilbek Gaspriskiyning «Mazhabi ishtirokiyun»ni qattiq qattiq tanqid qilgan «Ovrupo madaniyatiga bir nazari muvozana» risolasi va «Dorur-rohat musulmonlar» romanidagi mulohazalarga tayanar edi. Behbudiy ham o‘z ustozi kabi sotsializmni zo‘ravonlik hisobladi, ijtimoiy tenglikni adolatsizlik deb biladi. Shaxs mafaatdorligida, millat ravnaqida taraqqiyotning buyuk omilini ko‘rdi. Xuddi shu e’tiqod uni Turkistonning mustaqilligi uchun kurashga yetakladi[5].

“Tujjor” gazetasi 1907-yil yildan chiqa boshladi. Gazeta muhariri Toshkenlik saxovatli boylardan biri Saidkarim Saida’zimboyev bo‘lgan. Gazeta bir yilga 5 so‘m, olti oyligi uchun 3 so‘m, uch oyligi 1 so‘m oltmish tiyin, oxirgi sahifasi o‘n tiyindan bosiladi. Shuni ham qayd etish kerakki, Ziyo Said 1927-yilda nashr qilingan “O‘zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar” kitobida “Tujjor” haqida “Azbaroyi bemazaligidan hech bir obro‘ orttira olmadi. Bahs qilgan masalalari Said Karimboy bilan Orifxo‘jaboy o‘rtasidagi ba’zi bir shaxsiy ziddiyatlarni yozishdan nariga o‘tmadi”, deb uning faoliyatiga mutlaqo salbiy baho beradi. Bunda biroz mubolag‘a borga o‘xshaydi. To‘g‘ri, gazeta aholining tijoratchi qatlamiga mo‘ljallangani uchun uning mavzu doirasida cheklanish mavjud. Shuningdek, gazeta muharriri qayd

[4] O’sha joyda.
[5] Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. - Тошкент: Маънавият, 2004. 261- bet.

qilganidek, “Tujjor” hukumatga taalluqli muassasalar yuzasidan mutlaqo tanqidiy fikr bildirmadi. “Tujjor” bilan nisbatan bir paytda chiqqan “Shuhrat” va “Osiyo” gazetalarida mavjud tuzumni u yoki bu darajada tanqid qilish tendensiyasi mavjud bo‘lgan. Bularning barchasi “Tujjor”ning mushtariylari kamayishiga olib kelgan. O‘sha paytda gazetalar mushtariylarining asosiy qismini ziyolilar, jumladan, jadidlar tashkil etishgan. Natijada, “Tujjor” 36 ta son chiqqach, to‘xtashga majbur bo‘ldi[6].

Yetuk jadidlarimizdan Abdulla Avloniy ham o‘z uyida “Shurat” gazetasini chiqara boshladi. Gazetaning yo‘li ayon bo‘lishi bilan do‘stidan dushmani ko‘paydi. Natijada 10- soni chiqib berkildi. So‘nggi 14-fevral 10-sonida «Dano‘si namima» (chaqma – chaqarlik) sarlavhasi bilan idoraning bir xabari bosilgan. Unda shunday gaplar bor: “Eshitilmish xabarlarg‘a qarag‘onda o‘z musulmonlarimizdan ba’zi «dano‘s”chilar paydo bo‘lib, gazetamizdan “начальство” g‘a “dano‘s” qilmak fikrida yelka qilmoq emishlar”. Gazetaning yopilishiga qaraganda, bu «dano‘s»larda «ehtiyoj» bo‘lgan ko‘rinadi. Va ehtimolki ular gazetaning taqdirini hal qilganlar. Avloniy gazetaning yopilishini o‘z tarjimai holida «yashirin tashkilotlar» bilan aloqa, «Rafiq Sobirov» daganing xiyonatiga bog‘laydi[7].

Gazeta yopilganda so‘ng, redaksiya ashyolari musodara qilinadi. Keyinchalik A. Bektemirov nomiga ruxsat olib, “Osiyo” gazetasini chiqara boshladi. Bu gazeta ham Avloniy uyida edi.

1913-yildan Behbudiy matbuot ishlari bilan shug‘ullandi. Apreldan “Samarqand” gazetasini chiqardi. Gazeta turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marta, dastlab ikki, so‘ng to‘rt sahifada chop etilgan. 45 ta sonidan keyin moddiy tanqislik tufayli to‘xtagan. O‘sha yili 20-avgustdan “Oyina” jurnalini chiqara boshlagan. Bu suratli haftalik majalla asosan o‘zbek tilida bo‘lib, unda ixcham forsiy she’rlar, maqolalar, ruscha e'lonlar ham berib borilgan. Boshida haftada bir marta va ikkinchi yildan e'tiboran 15 kunda bir qatla chiqib, yigirma oy chamasi davom qildi... Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg‘oniston, Hindiston va Turkiyagacha tarqalar edi... Jadidlarning sevimli jurnali edi. Shuning uchun ular tomonidan hurmatlandi va sevib o‘qildi”, deb yozgan edi Ziyo Said[8].

“Oyina” jurnali ma’rifat va madaniyat tarqatishda juda kata xizmat qildi. Unda millat va xalq haq – huquqiga, tarixiga, til-adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, baxslar berib borilgan. Ayniqsa, til masalalari muxarrirning

[6] Jadid.uz
[7] Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. - Тошкент: Маънавият,, 2004. 269-bet.
[8] Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. - Тошкент: Маънавият, 2004. 255- bet.

xamisha diqqat markazida bo‘lgan. Masalan, jurnalning 1913-yil avgust, birinchi-nishona sonidayoq “Ikkinchi emas, to‘rt yil lozim”, degan maqola bilan chiqqan edi[9].

Ma’lumki ziyolilarning aksariyati sayyoh ham bo‘lganlar. Ular juda ko‘p hududlarda Yevropa mamlakatlarida bo‘lishgan. Ular shunchaki sayohat qilishmasdan, bu sayohatlardan ko‘zlagan maqsadlari ham bo‘lgan. Yevropa davlatlariga sayohat bilan birga u yerdagi ta’lim usuli, g‘oyalarini Turkistonga ham olib kelishga yangilik yaratishga harakat qilganlar. Turli yerlarda har xil insonlar bilan suhbatlashib, fikr almashib o‘z fikr doiralarini, ilmlarini ancha rivojlantirganlar. Sayohatdan qaytganlarida Turkistondagi kamchiliklar, yomon illatlar yaqqol ko‘zlariga ko‘rinib qolgan.

Fitratning jurnalda bosilgan maqolalaridan biri «Himmat va saboti bo‘lmagan millatning haqqi hayoti yo‘qdur» deb nomlangan. Maqola «Tushunganim zamon ko‘nglum yonar, yig‘lamoq istarman, ko‘zyoshlarim kelmaydir», deb boshlanar edi. Adib taraqqiyot va turmushda Yevropadan yer va osmon qadar uzilib qolgan Turkistonning fojiali ahvolidan so‘z ochgan edi(1915-yil, 7-son). «S.A.» imzoli kishining “Har millat o‘z tili ila faxr etar” (1914-y., 35-son) maqolasida boshqa tillarni o‘rganish qatorida har bir millat o‘z tilining muhofazasi bilan shug‘ullanishi shart, degan fikr juda ko‘p dalillar bilan isbot qilib berilgan. «Agarda til va adabiyotimizni muhofaza qilmay, anga ajnabiy lug‘at va so‘zlarni qo‘sha bersak, bir oz zamonda til va milliyatimizni yo‘qoturmiz. Milliyatimizni yo‘qotganda diyonatimiz o‘z-o‘zi ila albatta, yo‘qolur», deb yozadi muallif va «Bas, bizg‘a tilimizni ajnabiy so‘zlardan muhofaza qilmoqlik eng birinchi muhim bir vazifadur», deb xulosa chiqaradi. Jurnalning 1915-yil 11-12-sonlarida bosilgan Behbudiyning “Til masalasi” maqolasida tillarni o‘zaro munosabati haqida baxslar davom etgan[10].

Sadoi Turkiston (“Turkiston ovozi”) – jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy gazetasi. 1914-yil 4-apreldan 1915-yil 10-aprelga qadar Toshkentda o‘zbek tilida nashr qilingan. Gazeta Ubaydulla Asadullaxo‘jayev (Xo‘jayev) tomonidan tashkil etilgan va uning muharrirligida faoliyat ko‘rsatgan.

“Sadoyi Turkiston” V.M.Ilinning xususiy bosmaxonasida, har bir soni o‘rtacha 1000 nusxadan chop qilingan, obuna va chakana savdo yo‘li bilan tarqatilgan. Gazetani haftada 2 marta chiqarish ko‘zlangan bo‘lsa-da, ammo bunga erishilmagan. Gazeta haftada 1 marta 4 sahifada bosilgan.

Gazeta tahririyatining o‘zagini XX asr boshidagi o‘zbek ma’rifatparvar adabiyoti va publitsistikasining yetakchi namoyandalari Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Muzaffarovlar tashkil etgan. Ular

[9] Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. - Тошкент: Маънавият, 2004. 259- bet.

[10] Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. - Тошкент: Маънавият, 2004. 260- bet.

bosh muharrir U.Asadullaxo‘jayevga gazeta faoliyatini yo‘lga qo‘yishda faol ko‘maklashganlar. Gazeta qiyofasini belgilaydigan asosiy maqolalarni ham shular yozishgan. “Sadoyi Turkiston”da davrning To‘lagan Xo‘jamyorov (Tavallo), Abdulhamid Sulaymonov (Cho‘lpon), Hamza Hakimzoda Niyoziy, Mirmuhsin (Shermuhamedov), Abdulla Qodiriy, Xolid Sayd, Saidnosir Mirjalilov, Mo‘minjon Muhammadjonov, Abdulla Erg‘oziyev, No‘shiravon Yovushev, Siddiqiy, Lutfulla Olimiy, Ibrohim Davron, Shokirjon Rahimiy kabi millatparvar adib va ziyolilari faol hamkorlik qilganlar[11].

“Sadoi Turkiston” gazetasi mahalliy aholi farzandlari o‘qiydigan maktablarning tadrijan zamonaviy tusga kirishi uchun izchillik bilan yo‘l tutdi. Muallifning imzosi qo‘yilmagan «Imtihon masalasi» sarlavhali maqolada eski maktab va madrasalarda imtihon umuman o‘tkazilmasligi, usuli jadida maktablarida so‘nggi bir necha yil ichida imtihonlar o‘tkazilishi tartibga kirgani, rus-tuzem maktablarida esa rus tilida o‘qitiladigan fanlardan imtihonlar o‘tkazilib, ularda gubernatorlardan tortib, amaldor va mahalliy boylargacha hozir bo‘lishlari yoziladi. Lekin bunday maktablarda musulmonchilik asoslaridan hamda o‘zbek tilida o‘qitiladigan fanlardan imtihon o‘tkazilmasligidan muallif taajjublanadi[12].

Umuman olganda, buning taajjublanadigan joyi yo‘q. Chunki imperiyaning asosiy maqsadi Turkistonda mustahkam o‘rnashib olish edi. Turkistonni o‘z madaniy va siyosiy ta’siri ostiga olishga intilgan. Shuning uchun ham ta’lim tizimida rus tili va rus madaniyatini targ‘ib qilish ustuvor edi. Mahalliy tillar ikkinchi darajali bo‘lib, imtihon tizimida ham e’tiborga olinmagan.

Bu gazeta bolalarning tarbiyasi masalasiga ham e’tibor qaratgan. Xolid Saidning “Jim o‘tir, juvonmarg, gapirma, haromi!” sarlavhali maqolasida[13] bola endi tilga kirib, atrofida bo‘layotgan voqealarga munosabat bildira boshlaydi. Bu hodisa bir necha bor takrorlangach, bolada jur’atsizlik qiladi, deb yozadi. Natijada bola «…bir so‘z so‘ylaguncha qizarib –bo‘zarib ming bor tupuguni yutub, so‘zining tarovatini ketkarur. So‘ngra na muddaosini durustroq suratda ado qila bilur, na so‘zida bir ta’siri qolur. Bizlar shunday odamg‘a odoblik, hayolik odam deymiz. O‘lim munday odobg‘a. O‘lim munday hayog‘a. Qahr o‘lsun munday tarbiyag‘a”[14], deydi.

Darhaqiqat, bu kabi tarbiya o‘zbek millatiga singib ketgan odatlardan biridir. Bolalikdan aksar farzandlar shunday tarbiyada ulg‘ayadi. Bilim dargohlarida ham shunday tarbiya berishga harakat qilinadi. Ota-onalar ko‘pincha o‘zlari bilmagan

[11] Historiy.com
[12] “Садои Туркистон” газетаси. 1914 йил, 11 май.
[13] “Садои Туркистон” газетаси. 1914 йил, 5 май.
[14] С. Холбоев, У. Долимов, Б. Дусткораев, Туркистон жадидчидиги -миллий уйгониш даври тарихи (XIX аср охири - XX аср бошлари . Наманган-2012. "Namangan" .93- bet.

holda boshqaruvchi emas balki boshqariluvchi farzandlarni tarbiyalaydilar. Ular voyaga yetganlarida hatto o‘z hayotlarini hal qilishga ham imkon bermaydilar. Natijada kelajakda oila qurib farzandlari bo‘lganida ham o‘zlari shaxsiy qaror qabul qila olmaydigan, birovning fikriga qaram shaxsga aylanadilar. Bunday odatlar xato ekanligini ba’zi o‘qituchilar, tarbiyachilar, psixologlar ko‘tarib chiqmoqdalar. Bolalarga yoshligidan kattalarga qilinadigan munosabatni qilish kerakligini aytishmoqda. Bu ularni kelajakda erkin, mas’uliyatli bo‘lishlariga zamin yaratadi, degan fikrni bermoqdalar.

XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi shakllangan bu matbuot taraqqiyparvar g‘oyalarni yoyishda kata rol o‘ynagan. Asosiy maqsadi xalqni savodxon qilish, ilm-fan va zamonaviy bilimlarni targ‘ib qilish, milliy ongni uyg‘otish va mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashish edi. Jadid matbuoti “Tarjimon”, “Shuxrat”, “Sadoi Turkiston”, “Samarqand”, “Oyina” kabi gazetalar va jurnallar orqali o‘z fikrlarini ilgari surganlar. Bu gazetalarda ko‘tarilgan muammolarning ba’zilari hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Maqolalarda Turkistonning og‘riqli masalalariga e’tibor berilgan. Bu nashrlar adabiyot, siyosat, iqtisod, madaniyat va ta’limga oid maqolalar bilan chiqishlar qilishdi. Mustamlaka siyosatining yanada kuchayishi bilan jadid matbuoti ham ta’qib ostiga olindi. Biroq ularning ta’siri keying milliy uyg‘onish harakatlariga zamin yaratdi. Jadidchilik matbuoti zamonaviy matbuotning tamaltoshi bo‘ldi, deyilsa mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бобохонов А.Ҳ. Асрдан ошган зиё масканлари (Тарихий очерклар). – Т.: Ўзбекистон, 2011. – Б. 74
2. Dog‘an Zeki Velidi. Bugunku Turkeli (Turkustan) ve yakin tarixi. 2-baski. – Istanbul, 1981.
3. Komatsu H. 20-Yuzyil Baslarinda Orta Asiyada Turkcilik ve Devrim Hereketleri. - Ankara, 1993.
4. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002.
5. Said Ziyo. Tanlangan asarlar. - Toshkent, 1974.
6. Boltaboev H. Jadidchilikning ma’naviy ildizlari / O‘zbekistonning yangi tarixi: konseptual-metodologik muammolar. – Toshkent: Akademiya, 1998.
7. Каримов Н.. Абдулхамид Сулаймон ўғли Чўлпон. Тошкент: Фан. 1991. – 84 б.
8. М. Ходиев. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2020. – 247 б.

9. Холбоев С., Долимов У. Туркистон жадидчидиги - миллий уйғониш даври тарихи (XIX аср охири – XX аср бошлари). – Наманган: Namangan, 2012. – 323 б.

10. Жадидчидик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш (Туркистон ва Бухоро жадидчидиги тарихига янги чизгилар). Даврий тўплам. – Тошкент: Университет, 1999. – Б.24.